

## O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi tizimi

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi muassasalari tizimida akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari mavjud bo'lib, ular o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifining maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy, o'quv, uslubiy, moddiy-texnik, psixologik va pedagogik sharoitlarini ta'minlaydi.

2019/2020 o'quv yilining boshida 95 ta o'rta maxsus va kasb-hunar ta'lifi muassasalarida 36,5 ming nafar o'quvchi tahsil olmoqda, ularga 4,0 ming nafar o'qituvchi ta'lim beradi. Joriy yilda 9,2 ming nafar o'quvchi qabul qilindi va 41,2 ming nafar o'quvchi bitirdi.

95

- O'rta maxsus va kasb-hunar ta'lifi muassasalari,
- shu jumladan:

31

- Akademik litseylar

64

- Kasb-hunar kollejlari

### 2019/2020 o'quv yili boshiga Toshkent shahridagi o'rta maxsus va kasb-hunar ta'lifi muassasalarining asosiy ko'rsatkichlari

#### 1. Akademik litseylar



2019/2020 o‘quv yili boshida Toshkent shahrida akademik litseylar soni 31 tani tashkil qildi. Akademik litseylarda 12,7 ming nafar o‘quvchi tahsil olmoqda, ularning 40,3 % qiz bolalardir.


### **2019/2020 o‘quv yili boshiga akademik litseylarning asosiy ko‘rsatkichlari,**

#### **tumanlar kesimida**


	Akademik litseylar soni, birlik	O‘quvchilar soni, kishi	Qabul qilingan o‘quvchilar soni, kishi	Bitiruvchilar soni, kishi	O‘qituvchilar soni, kishi	Bir o‘qituvchiga to‘g’ri keladigan o‘quvchilar soni, kishi
<b>Toshkent sh.</b>	<b>31</b>	<b>12745</b>	<b>6715</b>	<b>11423</b>	<b>1266</b>	<b>10</b>
<b>tumanlar:</b>						
Bektemir	1	234	131	288	22	10
Mirobod	4	1327	667	1387	130	10
M. Ulug‘bek	2	627	395	817	41	15
Olmazor	6	2269	1230	1768	244	9
Sirg‘ali	1	548	253	232	41	13
Uchtepa	1	719	249	191	46	15
Chilonzor	4	1905	1035	1525	252	8
Shayhontohur	3	1183	606	1323	146	8
Yunusobod	4	1757	966	1685	171	10
Yakkasaroy	4	1808	981	2067	144	13
Yashnobod	1	368	202	140	29	12

2019/2020 o‘quv yilida 6,7 ming nafar o‘quvchi qabul qilindi, 11,4 ming nafar o‘quvchi bitirgan. Toshkent shahrida bitta o‘qituvchiga (o‘rindoshlarsiz) o‘rtacha 10 nafar o‘quvchi to‘g’ri kelmoqda.

### Akademik litsey o‘quvchilarining jinsi bo‘yicha ulushi



### Bir o‘qituvchiga to‘g’ri keladigan o‘quvchilar soni tumanlar kesimida, kishi (2019/2020 o‘quv yili boshiga)




Ta’lim holati to‘g’risidagi muhim ma'lumotlarni aks ettiradigan ko‘rsatkichlardan biri bu har bir o‘qituvchiga to‘g’ri keladigan o‘quvchilar sonining nisbati. Ushbu ko‘rsatkich o‘quvchilar umumiyligi sonining o‘qituvchilarning umumiyligi soniga bo‘lish orqali hisoblanadi.


2019 yilda akademik litseylarda bir o‘qituvchiga to‘g’ri keladigan o‘quvchilar soni Chilonzor va Shayxontohur tumanlarida 8 nafarni tashkil etdi. Uchtepa va M.Ulug‘bek tumanlarida bu ko‘rsatkich 15 nafarni tashkil etdi.

**Akademik litsey o'quvchilarining yoshi bo'yicha taqsimoti, kishi  
(2020 yil 1 yanvar holatiga to'liq yosh)**

	jamii o'quvchilar soni,	15 yosh va undan kichik	16 yosh	17 yosh	18 yosh	19 yosh va undan katta
Toshkent sh.	12745	2165	5898	4043	626	13



**Toshkent shahrida akademik litsey o'quvchilarining o'qitiladigan tillari  
bo'yicha taqsimlanishi, kishi (2019/2020 o'quv yili boshiga)**




**2019/2020 o'quv yili boshiga kasb-hunar kollejlarining asosiy ko'rsatkichlari,**
**tumanlar kesimida.**

Kasb-hunar kollejlarida 23,7 ming nafar o'quvchi tahsil oladi. Joriy yil 2,5 ming o'quvchi qabul qilindi, 29,8 ming o'quvchi bitirdi.

	<b>Kasb-hunar kollejlari soni, birlik</b>	<b>Jami o'quvchilar soni, kishi</b>	<b>Qabul qilingan o'quvchilar soni, kishi</b>	<b>Bitiruvchilar soni, kishi</b>	<b>O'qituvchilar soni, kishi (o'rindoshlarsiz)</b>
<b>Toshkent sh.</b>	<b>64</b>	<b>23705</b>	<b>2529</b>	<b>29784</b>	<b>2036</b>
<b>tumanlar:</b>					
Bektemir	1	154	-	146	5
Mirobod	6	2407	-	2748	150
M. Ulug 'bek	7	1607	-	3004	111
Olmazor	8	3367	656	3211	405
Sirg 'ali	5	1609	-	2634	123
Uchtepa	6	1751	20	2161	129
Chilonzor	10	4844	-	6091	417
Shayhontohur	8	4728	1853	4042	433
Yunusobod	4	1182	-	2501	63
Yakkasaroy	4	666	-	1203	94
Yashnobod	5	1390	-	2043	106


2019/2020 o'quv yili boshida kasb-hunar kollejlarida o'qituvchilarning umumiy soni 2,0 ming kishini tashkil etdi (o'rindoshlarsiz). Toshkent shahrida o'rtacha har bir o'qituvchiga 12 nafar o'quvchi to'g'ri kelmoqda. Jami o'qituvchilarning 71,2 foizini ayol o'qituvchilar tashkil qiladi.





**Kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarining yoshi bo‘yicha taqsimlanishi  
2020 yil 1 yanvar holatiga to‘liq yosh, kishi**


	Jami o‘quvchilar soni	15 yosh va undan kichik	16 yosh	17 yosh	18 yosh	19 yosh va undan katta
Toshkent sh.	23705	35	601	6100	12284	4685



**Kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarining o‘qitiladigan tillari bo‘yicha taqsimlanishi  
(2019/2020 o‘quv yili boshiga, kishi)**

	Jami o‘quvchilar soni	<i>shu jumladan o‘qitish tillari bo‘yicha:</i>	O‘zbek	Rus
Toshkent sh.	23705		18112	5593

**O‘quvchilarining o‘qitish tillari bo‘yicha taqsimoti,  
foizda**



**Ijtimoiy soha statistikasi bo‘limi**  
**Tel: (71) 203-88-27**